

XITOIY VA O‘ZBEK TILLARIDA “YURAK” KOMPANENTI BILAN KELADIGAN SOMATIK FRAZELOGIZMLAR

Normatova Yulduz Baxtiyorovna

Toshkent davlat sharqshunoslik

Universiteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbari: Artikova Ziyoda Zaynitdinovna

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti o‘qituvchisi

Biz ko‘p so‘zlarimizni frazeologizm, somatizmlar orqali gapirishga odatlanganmiz. Masalan, “Bugun sen qanday qilib yurak yutib kelding?” yoki “Hamma yurakdan sevsa, u oshqozoni bilan sevadi” kabilardir. Xitoy va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologiya olami keng qamrovlidir. Uning har bir lavhasi jahon tilshunoslarining e‘tiborini tortib kelmoqda. Birinchi navbatda Somatizm o‘zi nima va unga ilm-fan taraqqiyotida qanday ta‘riflar berib o‘tilgan o‘rganib chiqamiz.

Somatizm grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, ”soma” - “tana” ma‘nosini anglatadi. A‘zolarining asl ma‘nosiga ega bo‘lgan nomlar inson yoki hayvon tanasidir.

O‘zbek tilida somatizm atamasiga shunday ta‘rif berilgan.”Somatizm” atamasi “inson tanasi” to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ko‘chma ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar yordamida ifodalangan tananing tashqi qismlari va inson ichki a‘zolarining nomlari, suyak to‘qimalari, suyak biriktiruvchi to‘qimalarning nomlari va sezgi organlarining belgilarini ifodalovchi so‘zlar somatizmlar deb ataladi.¹

F.Vakk inson va hayvon tanasining turli qismlarining nomlarini somatizm deb biladi.U somatizmga shunday ta‘rif beradi: Qo‘l, oyoq, bosh, barmoq va boshqalar bularning barchasi inson va hayvonlar tanasining turli qismlarining nomlari somatizm deb ta‘kidlab o‘tgan.²

D.X.Bazarova , V.N.Suetenko, A.Dolgopolov, N.E.Mazalova, D.B.Gudkovlar va boshqa olimlar ham bu masalaga boshqa yondoshuv bilan ularning lug‘atlarini ishlab chiqishgan. Somatizm- atrofda dunyo haqiqatlari bilan keng aloqasi tananing turli qismlarining funksiyalarini ramziy qilish, ushbu guruh leksemalarining murakkab majoziy ma‘nolar tizimini shakllantirish uchun sharoit yaratadi va somatik frazeologizmga yordam beradi.

G‘arbliklar boshni asosiy fikrlash organi sifatida bilishsa, xitoyliklar idrok etish, xis qilish, fikrlash, sezish, buyruq berish, aql bilan ish ko‘rishning barchasi yurak amri

¹ O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 12-son ilmiy tadqiqotlar jurnali 19.10.2022 1141 somatizm tushunchasi va «ogiz» sūzi orqali ifodalangan frazeologik birliklarining lingvomadaniy tadqiqi Akbarova Kumriniso Ilxomjon kizi, Maхmudova Наргиза Равшановна

² Подгорная Валерия Владимировна Санкт-Петербургский государственный университет Mosina.Valeria@gmail.com ТЕЛЕСНОСТЬ В ЯЗЫКЕ 160 с.

bilan amalga oshadi deb hisoblashadi. Bu esa yurak komponentli frazeologizmlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.³

汉语大词典 hanyu da cidian “Xitoy tili katta lug‘ati” da 心 xin “yurak” ning 13 ta ma‘nosi bor ekan: “yurak”, “odam va hayvonning qon aylantirish organi”, “xarakter”, “fikrlash organi”, “fikr, g‘oya, his-tuyg‘u”, “o‘ylamoq rejalashtirmoq”, “g‘amxo‘rlik qilmoq”, “daraxt va gullarning kurtaklari”, “markaz, o‘rta”, “subyektiv ong”, “ko‘ngil, kayfiyat, xissiyot, rux”, “ong”, “28 ta yulduzning nomlaridan biri”.⁴

Yurak so‘zi bilan bog‘liq frazeologizmlar inson xissiyotlarining ko‘p qirrali jihatlarini namoyon etadi. Masalan:

心去意难留 xin qu yi nan liu - “ketishni istagan yurakni tutib qolib bo‘lmaydi”,
心头一震 xin tou yi zhen - “ko‘ngli sevmok”,

心驰 xin qi shen wang - “ko‘ngli oshiqmoq (talpinmoq)”, “yuragi urmoq”,
心口如一 xin kou ru yi - “Dili bilan tili bir bo‘lmoq”,

<新华成语词典> (第二版) xitoy tilidagi frazeologizmlarning izohli lug‘atida 10 481 ta frazeologizm keltirilgan bo‘lib, ularning ichida 380 tasi “yurak” bilan aloqador ekan.⁵

O‘zbek tilida ishlatiladigan frazeologizmlar xitoy tilida ham uchralar ekan. Masalan: “Ko‘ngling to‘q bo‘laversin”, “ko‘nglingni to‘q qilaver” kabi frazeologizmlarni gapiramiz. Buni xitoy tiliga tarjima qilsak 心理踏实 xin li ta shi deb aytilar ekan.

Tadqiqotlar, olimlarning izlanishlarini o‘rganib chiqib, biz bilmagan qachandan-qancha frazeologizmlar bor ekanligi fan doirasida o‘qib o‘rganish mumkin. Tepada qayt etilganidek xitoy tilidagi somatik frazeologizmlar ichidagi yurak so‘zi bilan keladigan somatik frazeologizmlar boshqa somatik frazeologizmlardan ko‘proq ekan. Somatik frazeologizmlar vositasida har bir xalqning urf-odatlarini, an‘analari va kundalik turmushdagi mushtarak tomonlarini yoritib beradi.

Фойдаланилган адабиётлар рo‘yxати:

1. Акбарова Қумринисо Илҳомжон қизи, Махмудова Нарғиза Равшановна / 1141 соматизм тушунчаси ва «оғиз» сўзи орқали ифодаланган фразеологик бирликларнинг лингвостилстик тадқиқи.
2. Подгорная Валерия Владимировна / Санкт-Петербургский государственный университет / Mosina.Valeria@gmail.com / ТЕЛЕСНОСТЬ В ЯЗЫКЕ 160 с.
3. Akimov Toir / Xitoy tili somatik frazeologizmlar: Shakllanishi va semantikasi / 86 b.
4. Akimov Toir / Xitoy tili somatik frazeologizmlar: Shakllanishi va semantikasi / 86 b.

³ Akimov Toir. Xitoy tili somatik frazeologizmlar: Shakllanishi va semantikasi. 86 b.

⁴ Akimov Toir. Xitoy tili somatik frazeologizmlar: Shakllanishi va semantikasi. 88 b.